

ZAMONAVIY VA SIFATLI TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI PSIXOLOGIYASI: O'QITUVCHIGA XOS ASOSIY SIFATLAR VA PEDAGOGIK MAHORAT UYG'UNLIGI

Ne'matova Gulsevar Akrom qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti 1 -bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20392981>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchi psixologiyasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Unda o'qituvchining shaxs-psixologik xususiyatlari, pedagogik faoliyat jarayonidagi emotsional holati hamda o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish usullari yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchining asosiy sifatlari, pedagogik qobiliyati va mahorati, o'qituvchi kompetentligi hamda stressga chidamliligi kabi sifatlarining ta'lim samaradorligiga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi psixologiyasi, pedagogik qobiliyat, pedagogik mahorat, o'qituvchi kompetentligi, o'qituvchining asosiy sifatlari va ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of teacher psychology. It explores the teacher's personality-psychological characteristics, emotional state during pedagogical activity, and methods for establishing effective communication with students. Additionally, the impact of core qualities such as a teacher's pedagogical abilities, mastery, professional competence, and stress tolerance on educational effectiveness is highlighted.

Keywords: teacher psychology, pedagogical ability, pedagogical mastery, teacher competence, core qualities of a teacher, educational effectiveness.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты психологии учителя. В ней освещаются психологические особенности личности учителя, его эмоциональное состояние в процессе педагогической деятельности, а также эффективные методы обучения и общения с учащимися. Кроме того, раскрывается влияние таких качеств, как основные качества учителя, педагогические способности и мастерство, компетенция учителя, а также стрессоустойчивость, на эффективность образования.

Ключевые слова: Психология учителя, педагогические способности, педагогическое мастерство, компетенция учителя, основные качества учителя и эффективность образования.

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi o'zni sezilarli darajada oshib bormoqda. Shuningdek, o'qituvchining emotsional holati, psixologik xususiyatlari va kasbiy mahorati o'quvchining dars davomidagi psixik holatiga, bilim olish darajasiga va faolligiga o'z ta'sirini bevosita o'tkazadi. Shu sababli, o'qituvchi psixologiyasini tadqiq etish psixologiyaning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi o'qituvchi psixologiyasining asosiy jihatlari va pedagogik faoliyatini tahlil qilish, ta'lim berish jarayonidagi o'zni va ahamiyatini ochib berishdan iborat.

O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishiga subyektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.[1]Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga o'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini berdi. Rossiya

psixologlaridan N.Kuzmina, F.Gonobolin, o'zbekistonlik psixologlardan S.Jalilova, Sh.Do'stmuxamedova, A.Jabborov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'qituvchilik kasbi va ta'lim jarayoniga doir muammolar keng tadqiq etilgan. Bunda o'qituvchilik kasbiga muvofiq professiogrammani yaratishadi.[1]Pedagog va o'qituvchining o'zaro farqlari: Pedagog – pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o'qitish bilan shug'ullanuvchi, shu soha bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxsdir. O'qituvchi – ta'lim muassasalarida va oliy

o'quv yurtlarida talim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan, o'quv jarayoniga rahbarlik qiladigan mutaxassisdir. O'qituvchining asosiy sifatleri quyidagilar: mustaqil, tashabbuskor, intellekt, adolatli, tashkilotchi, notiq, sezgir va kuzatuvchanlik. Ular uch guruhga bo'lib o'rganiladi va o'qituvchilar uchun zarur.

1.Kasbiy	2.Ma'naviy	3.Shaxsiy
*Kasbiy mahorat	*Xushmuomala	*Tashkilotchi
*Aniq maqsadli	*Madaniyatli	*Uddaburon
*Ijodkor	*Mehribon	*Mas'uliyatli
*Qobiliyatli	*E'tiqodli	*Namunaviylik
*Psixolog	*Obo'ga ega bo'lish	*Ko'ngilchan
*Nutqi aniq	*Intizomli	*Maslahatgo'y
*Professional ishchanlik	*Muloqotga kirishuvchan	*Chidamli

Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari. Mahorat tushunchasi (arab."mahorat" – mohirlik, ustalik, epchillik) – biror ish faoliyatini yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish. Pedagogik mahorat – pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi. Pedagogik mahorat qismlari: pedagogik bilim, pedagogik odob, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta'sir ko'rsatish, pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyati kiradi. Pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talabi asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim.[2]Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi:

- *o'qituvchilik kasbiga sadoqat;
- *o'z fanini o'qitish metodikasini mukammal bilish;
- *pedagogik qobiliyatlarni namoyish eta olishi;
- *pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi.[2] Pedagogik qobiliyat – bu qobiliyat

turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi.[1]Rus psixologi F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratib o'rganishni taklif qiladi.

1.Didaktik qobiliyatlar.	4.Nutqiy qobiliyat	7.Kommunikativ
2.Akademik qobiliyat	5.Tashkilotchilik	8.Pedagogik xayol
3.Perseptiv qobiliyat	6.Avtoritar	9.Diqqatni taqsimlash

Psixolog professor E.Goziyev tomonidan tavsiya etilgan zamonaviy o'qituvchining pedagogik qobiliyat qirralari quyidagilardan iborat:

*Didaktik qobiliyat – oson yo'l bilan murakkab bilimlarni tinglovchiga tushuntirish uquvchanligi. Albatta, har bir bolaning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda, individual yondashuvlar orqali o'quv materiallarini tushunarli qilib yetkazib berish, uquvsizlik va tushunarsizlik kabi holatlarni oldini oladi va bilim o'zlashtirish darajasi ijobiy bo'ladi.

*Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimga ega bo'lishlik.

*Nutqiy qobiliyat – ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq, nutqning jarangdorligi, pauza, mantiqiy urg'u va intonatsiya. Bir xil ohangdagi nutq o'quvchilarni juda tez toliqtiradi. Shu bilan birga bunday nutq I.P. Pavlovning fiziologik ta'limotiga ko'ra, doimiy ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchiga aylanib, bosh miya katta yarim sharlar po'stlog'ida tormozlanish jarayonini yuzaga keltiradi. O'qituvchidan o'quvchilarga uzatiladigan axborot asosan ikkinchi signal tizimi – nutq orqali beriladi va barcha nutqiy qobiliyatlar birday zarur.[1]

*Perseptiv qobiliyat – qisqa daqiqalarda auditoriya holatini, o'quvchilarning ichki tuyg'ularini, ruhiy holatlarini kuzatuvchanlik bilan bilish.

*Tashkilotchilik qobiliyati – sinf, guruh yoki jamoani uyushtirish, faoliyatni rejalashtirish va o'zaro hamkorlik xislatlari.

*Obro'ga (nufuzga) ega bo'lish qobiliyati – o'qituvchi o'zining shaxsiy xususiyatlari, bilimdonligi, aql farosatligi, mustaqil irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi.

*Muomala va muloqot o'rnatish qobiliyati.

*Psixologik tashxis – (diagnoz) qobiliyati insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishidan iboratdir.

*Diqqatni taqsimlash qobiliyati – bu qobiliyat bir vaqtning o'zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olishda namoyon bo'lib, o'qituvchi ishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

*Iymon-e'tiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga yo'naltirish qobiliyati.

*Tashabbusga, ijodga ilhomlantirish qobiliyati.

*Aqli donishlik qobiliyati.

*Konstruktiv qobiliyat – o'quv-tarbiya ishlarini oldindan rejalashtirish.

*Gnostik qobiliyat – tadqiqotga layoqatlilik qobiliyatlari shakllangan bo'lishi lozim.

*Kommunikativ qobiliyat.

*Pedagogik xayol – bu qobiliyat o'qituvchi o'quvchidan kelgusida kim chiqishini ko'z oldiga keltirish, oldindan ko'ra bilish.

*Reproduktiv qobiliyat – yangi materiallarni bolalar ongiga yetkazish.

*Adaptivlik – (moslashish).

Yuqorida keltirilgan qobiliyatlar bilan birgalikda stressni yengish va motivatsiya ham o'qituvchi uchun muhim sanaladi. Stress o'qituvchining diqqat va xotirasini pasaytiradi, dars sifatiga va o'quvchi psixologiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun o'qituvchi stressni yengish usullarini ishlab chiqishi zarur. O'qituvchining

kasbiy motivatsiyasi - o'qituvchi o'z kasbiga bo'lgan muhabbati, qiziqishi, o'z vazifalarini bajarayotganda ruhlanishi va bu jarayondan qoniqish olishi tushuniladi.[3] Bu motivatsiya o'qituvchini pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga erishishga undaydi va o'z navbatida o'quvchilarga ham ijobiy ta'sir qiladi.[3]

O'qituvchi kompetentligi(qobiliyat) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyish eta olishi.

Nazariyalar

Dastlab o'qituvchiga nisbatan o'smirlarning talab va umidlari chet el psixologlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, A.Djersildning izlanishlariga binoan bolalar quyidagi xarakterga ega bo'lgan o'qituvchilarni afzal hisoblar ekanlar: mehribon, quvnoq, javobgarlikni his qiladigan, haqiqatgo'y, batartib, halol, tashkilotchi, hurmatlovchi, xalqparvar, erkinlik huquqini beruvchi, ishchan va qiziquvchan.

Yu.A.Samarin fikricha, o`quv faoliyati samaradorligining ko`rsatkichi o`quvchilarda tafakkurning tizimliliği bilan dinamikasining kengayishidan iboratdir. Shunday ekan, pedagog doimo ta`lim jarayonini tashkil etish va boshqarishda bu jihatlarni inobatga olishi kerak.

XX asr boshlarida ommalashgan frenologiya nazariyasiga avstraliyalik vrach F.Gall asos solgan bo`lib, unda insonning fe`l-atvori va qobiliyatlari bosh chanog`idagi “do`ngliklar” g`urralar orqali aniqlagan. O`sha paytlarda o`qituvchi bo`lmoqchi bo`lganlarning boshini paypaslab ko`rishgan. Agar boshining ensa qismida maxsus “do`nglik” bo`lsa, u inson bolalarni sevadi va undan yaxshi o`qituvchi chiqadi deb hisoblaganlar.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, o`qituvchi psixologiyasi ta`lim jarayonida juda muhim ahamiyatga ega. O`qituvchining sabr-toqati, o`quvchilar bilan ijobiy munosabati, ularni tushuna olishi va o`zini boshqara bilish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, o`qituvchi doim o`z ustida ishlashi va psixologik bilimlarni rivojlantirib borishi lozim. U.Uord ta`kidlaganidek,

o`rtamiyona o`qituvchi faqat bayon qiladi, yaxshi o`qituvchi tushuntiradi, yuqori o`qituvchi ko`rsatib beradi, buyuk o`qituvchi esa ruhlantiradi. Demak, haqiqiy o`qituvchi bilim berish bilan birgalikda, o`quvchini ruhlantirishi va pedagogik qobiliyat qoirralariga ega bo`lishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- 1.Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiyasi. Toshkent, 2018 . 544-539-550-betlar.
2. O`quv - uslubiy majmua. Toshkent- 2021.59-bet.
3. F.B.Umarova.O`qituvchilarning kasbiy motivatsional faoliyati. Ilmiy maqola2024. 167-bet.
4. Goziyev.E.G. Pedagogik psixologiya. Toshkent.2006.